



SCIENCE BOX

ANTONIMLARDAN O'RINLI FOYDALANISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Umirova Mamlakat Imomovna

"International school of finance technology and science" instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilidagi antonimlarning vazifalari, shuningdek, ulardan o'rinli foydalanish haqida ma'lumotlar ko'rsatilgan. Bundan tashqari, maqolada turli misollar yordamida antonimlarning mohiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: antonimiya, polisemiya, ekspressivlik, pradigmatik munosabat, so'zning o'z ma'nosi, ko'chma ma'no, tazod, integratsiya, antonim birliklar.

O'zbek tili leksik jihatdan boy imkoniyatlarga ega. Tilimizda mayjud bo'lgan antonim, sinonim, omonim, paronim kabi so'zlarning shakl va ma'noviy jihatdan turlari ona tilimizning ifoda imkoniyatlari yanada boyligidan dalolat beradi. Antonim so'zlar nutqning ifodaliligi va ekspressivligini ta'minlashda qulay vositalardan biridir.

“Antonimlar (grekcha “anti” “qarshi” va “onuma” “nom”) qarama - qarshi ma'noli so'zlar bo'lib, biri ikkinchisini inkor etadi, lekin bu inkor yangi tushuncha bilan bog'liq bo'ladi. Bu tushuncha esa , voqeа-hodisalarining tabiiy manfiy va musbat, tomonlarning mavjudligini hamda ularning o'zaro nisbiy aloqadorligini aks ettiradi. Masalan: *katta* borligi uchun *kichik* bor, *keng* borligi uchun *tor* bor, *kecha* borligi uchun *kunduz* bor, *yaxshi* borligi uchun *yomon* bor, demak, antonim qarama-qarshi ikki qutbdir”¹.

O'quvchilarning so'z boyligini yanada oshirishda antonim so'zlar yuzasidan o'tkaziladigan amaliy topshiriqlar juda yaxshi samara beradi. Zid ma'noli so'zlarni o'z o'rnida qo'llay olish nutqqa aniqlik, ta'sirchanlik va ifodalilik baxsh etadi. Nutqning qiziqarli va suhbатdosh uchun maroqli bo'lishiga hissa qo'shamdi. Ona tili fanidan o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda zid ma'noli so'zlar yuzasidan xilma-xil topshiriqlar berish mumkin. Antonim so'zlar va ularning nutqda qo'llanishi yuzasidan olingan bilimlarni turli usullar orqali amaliy ko'nikmaga aylantirish mumkin.

Antonimlar bir-biriga qarama-qarshi ma'no bildiruvchi so'zlar bo'lib, zidlik ma'nosini paradigmatic munosabatlar yordamida ifodalaydi. (O'zaro bir sathga mansub bo'lgan, tildagi qimmati jihatdan bir xil birliklarning bir umumiyl belgi asosida o'zaro bir guruhga, ya'ni uyaga birlashuvni tilshunoslikda paradigmatic munosabat deb yuritiladi. Bunday birliklar uchun o'zaro umumiyl belgi sifatida ushbu til birliklarning shakli ham, ma'nosi ham asos bo'lishi mumkin.) Antonimlik tilga xos bo'lgan juda qiziq hodisa sanaladi, aslida u ongimizda zid ma'noli juftlik sifatida mavjud bo'ladi. Bu antonimik juftlikdan birini aytganimizda uning zid ma'noli jufti xayolimizga keladi. Bu juftliklarni topa olish o'quvchilarning so'z boyligi darajasini aniqlab berish bilan birga ularning fikrlash qobiliyatini o'stirishga ham xizmat qiladi. Quyida berilgan topshiriq aynan shu maqsadga xizmat qiladi. *Topshiriq. Quyida berilgan so'zlarning antonimlarini toping va ko'p nuqtalar o'rniga yozing.* Bisyor

¹ M. Iminov va boshqalar. "O'zbek tili uslubiyati masalalari", "Namangan" nashriyoti, 2007



SCIENCE BOX

— ..., ko‘hlik — ..., qisqa — ..., ta’viya — ..., asta — ..., sayoz — ..., rost — ..., topmoq — ..., dangasa — ..., tanti — ..., kecha — ..., hozir — ..., yolg‘on — ...

Antonimlar ba’zan juft so‘z shaklida qo‘llanib boshqa turkumdagi so‘zga ko‘chadi, ya’ni yangi ma’no ifodalaydi. Masalan *achchiq* va *chuchuk* so‘zlari aslida sifat turkumiga oid bo‘lib maza-ta’m ma’nosini ifodalaydi. Ushbu so‘zlar bir-biriga zid ma’no bildiradi. Ular juftlab qo‘llanganda (*achchiq-chuchuk*) ot turkumiga ko‘chib yangi ma’no ifodalaydi, ya’ni zid ma’noli so‘zlarining juftlashishi orqali yangi ma’noli so‘z yasaladi: *Achchiq-chuchuk* (mavsumiy tayyorlanadigan salat nomi) *tayyorladim*. Bu misoldagi *achchiq-chuchuk* ot turkumiga oid bitta so‘z sanaladi. Navbatdagi topshiriq antonimlarga xos bo‘lgan ushbu xususiyatga oid bo‘ladi.

Topshiriq. Antonim juftliklardan hosil qilingan yasama so‘zlarga misol keltiring va ma’nolarini izohlang.

Namuna: keldi-ketdi (fe’l turkumiga oid antonim so‘zlar juftligidan ot yasalgan)

Bu topshiriqni o‘quvchilar mustaqil bajaradilar. Topshiriq o‘quvchilarning topqirligi, zukkoligi va so‘z boyligini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek tili leksikasidagi ko‘pchilik so‘zlar alohida, ya’ni nutqdan tashqarida birlamchi ma’noni ifodalaydi, ya’ni o‘z ma’nosida qo‘llanadi. Nutq jarayonida boshqa so‘zlar bilan munosabatga kirishganda esa birlamchi ma’nosiga bog‘liq bo‘lgan boshqa ko‘chma ma’noni ham anglatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunday so‘zlar tilshunoslikda ko‘p ma’noli, ya’ni polisemantik so‘zlar deb yuritiladi. “Antonimiya va polisemiya hodisalari o‘zaro bog‘liqdir: ko‘p ma’noli leksema o‘zining bosh ma’nosi bilan bitta antonimik juftlikka, hosila ma’nosi bilan esa boshqa antonimik juftlikka kirishi mumkin”.² Masalan, *yengil* so‘zi ko‘p ma’noli so‘z bo‘lib, uning birlamchi ma’nosi *og‘ir* so‘zi bilan antonim bo‘ladi. Ushbu so‘z matn tarkibida *shamol* so‘ziga bog‘lanib kelganda *yengil* so‘zi bilan emas, balki *kuchli* so‘zi bilan antonim bo‘lishi mumkin.

Masalan, yengil qop – og‘ir qop, yengil shamol – kuchli shamol

Nutq jarayonida antonimlardan o‘rinli foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish maqsadida zid ma’noli so‘zlarga xos bo‘lgan yuqoridagi xususiyatiga oid topshiriqlarni bajartirish mumkin.

Topshiriq: Quyidagi birliklarda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning antonimlarini aniqlang. Qattiq yer, saxiy odam, qora niyat, yumshoq so‘z, baxil odam, fe’li tez, yorug‘ kelajak, sokin hayot, totli damlar

Sharq mumtoz adabiyotida zid ma’noli so‘zlar ishtirokida takrorlanmas badiiy ifodalar yaratilgan. Mumtoz she’riyatning eng chiroqli badiiy tasviriy vosita sanalmish tazod san’ati aynan antonim so‘zlar ishtirokida o‘z ifodasini topadi. Bir-biriga qarama-qarshi ma’noli so‘zlarni yonma-yon qo‘llash orqali tushunchalar, holatlar, belgilar va obrazlar zidlantiriladi. Bu takrorlanmas ifoda usuli orqali ijodkor kitobxонни qiyoslashga, mushohada yuritishga undaydi, she’rning o‘qishliliginini, ta’sirchanligini yanada oshiradi. Ona tili darslarida antonimlar haqida ma’lumot berilar ekan, tazod san’atiga namunalar keltirish va ularni tahlil qilish orqali talabalarning zid ma’noli so‘zlarni qo‘llay olish bilan bog‘liq amaliy ko‘nikmalarini yanada oshirish mumkin.

Masalan: Jonim chiqadur dard ila, jononima ayting,

Men xasta gado holini sultonima ayting. (Lutfiy)

Qon yutib umri jahon ahlida bir yor istadim,

² H. Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent. “Talqin” nashriyoti. 2005.



SCIENCE BOX

Lekin ul kamrak topildi, garchi bisyor istadim. (Navoiy)

O‘zbek adabiyotining zabardast vakili, O‘zbekiston qahramoni Erkin Vohidovning “Barcha shodlik senga bo‘lsin” nomli she’ri ham antonim so‘zlar tahlili uchun qimmatli manba bo‘la oladi. Iste’dodli shoir ushbu she’rning har bir misrasida antonim so‘zlar vositasida shunday rang-barang tazodlar yaratadiki, she’rdagi zid ma’noli so‘zlar jilosi she’rni ilk o‘qigandayoq kitobxonni o‘ziga maftun qilib qo‘yadi.

Barcha shodlik senga bo‘lsin,

Bor sitam, zorlik menga.

Barcha dildorlik senga-yu,

Barcha xushtorlik menga.

Mumtoz adabiy parchalar asosida berilgan quyidagi topshiriq ham o‘quvchilarining nutq boyligini oshirish bilan bir qatorda fanlararo integratsiya, ya’ni ona tili va adabiyot fanlari o‘rtasidagi aloqadorlikni ham ta’minlaydi.

Topshiriq. Quyida berilgan she’riy parchalarni diqqat bilan o‘qing va antonim so‘zlar vositasida yaratilgan badiiy ifoda haqida fikr yuriting.

Sensiz bu jahon ayshi alamdur manga, ey do‘st,

Shodlig‘i ham mehnat-u g‘amdur manga, ey do‘st. (Atoyi)

Vasl uyin obod qildim, buzdi hijron oqibat,

Seli g‘amdin u imorat bo‘ldi vayron oqibat. (Nodira)

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, tilimizda antonim birliklardan foydalanish borasida juda ko‘p imkoniyatlar mavjud. Ulardan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish nutq boyligini oshirishda eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. H. Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T.: Talqin. 2005.
2. R. Rasulov. Umumiyl tilshunoslik. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2007
3. Ziyodova T.U. O‘qituvchi kitobi. Ona tili o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. T.: 2002.
4. M. Iminov va boshqalar. “O‘zbek tili uslubiyati masalalari”, “Namangan” nashriyoti, 2007.
5. Sh. Rahmatullayev va boshqalar. O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati. T.: O‘qituvchi. 1984.
6. Nusratullayevich, P. T. B. (2022). The role of alisher Navoi’s spiritual heritage in the moral education of youth. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, 7(4), 38-39.
7. Sherzodovich, A. S. (2020). The role of online teaching and innovative methods. *Science and education*, 1(3), 524-528.
8. Kizi, I. Y. N. Organization of Modular Training in Education.

